

# **PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPLEMENTING CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION USING SOURCES OF NATURAL VALUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

Ortiqova Nargiza Akramovna

PhD Qo'qon davlat universiteti dotsenti

Ortiqova1101@gmail.com

---

## **Abstract:**

The article describes the essence of the content of educational values and their sources in educational institutions, effective methods, forms, and techniques for using them in the educational process, and the spiritual and moral qualities that should be formed in students through educational values.

**Keywords:** Educational values, sources, educational process, method, form, method, means, spiritual and moral qualities, pedagogical conditions.

## **Kirish**

Ta'lim tarbiyaning muhim omillari bo'lgan qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari orasida o'z ahamiyatini, ijobiylik hususiyatlarini doimiy saqlab qoladiganlari ham bor. Bular — inson vujudining tirikligi, umri va hayoti, sihat-salomatligi, mehnati, bilimi, muomalasi, ular inson va jamiyat bor ekan, o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolaveradi.<sup>1</sup> Afsuski, ularning qarama-qarshisi bo'lgan kasallik, ma'nosiz hayot kechirish, bilimsizlik va boshqalar ham tarixiy jarayonlarning hamrohi. Tiriklik bor ekan — o'lim, borliq eng buyuk ma'vo ekan — yo'qlik, inson tirik jonzot ekan — kasallik, hayot kechirishdan maqsad mazmunli umr ekan — ma'nosiz qo'yilgan ba'zi qadamlar, yashashning zaruriy shartlaridan biri bilish va anglash ekan — bilimsizlik, taraqqiyotga intilish bor ekan — tanazzul va boshqalar insoniyatni doimo ta'qib qiladi. Yuqoridagi ijobiy qadriyatlarning ahamiyati ham ularga teskari bo'lgan jihatlarga nisbatan aniqlanadi. O'quvchilarda, ayniqsa, talaba va o'quvchilarda ma'naviy yetuk tuyg'ularni shakllantirishda ana shunday aksiologik bog'liqliklarning botiniy va zohiriy tomonlarini o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

Talabalar va o'quvchilarni ma'naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy aksiologiya, ya'ni qadriyatshunoslikning asoslarini o'rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me'yorlari borasida to'plagan yutuqlarini

---

<sup>1</sup> Nazarova M. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyati. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022

umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida milliy-ma'naviy qadriyatlar va ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, ularga nisbatan tarixiy yondashuv, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash yo'lida olib borilgan amaliy harakatlar mazmuni hamda shaxsda milliy g'urur tuyg'ularining namoyon bo'lishi kabi masalalar o'z ifodasini topgan<sup>2</sup>. A.Azizxo'jayev, A.Aliyev, B.Aminov, T.Rasulov, S.Atamuratov SH.Baxranov, Taylanova A.Jalolov, N.Jo'rayev, J.Tulenov, Z.G'ofurov, K.Yusupov, O'.Yusupovlarning ishlarida shaxs kamoloti, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, shaxsda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishi, bu jarayonga aksiologik yondoshuv masalalari tahlil etilgan. O'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda milliy-ma'naviy meros, xususan, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odat, marosim va an'analar, shuningdek, milliy tarbiya o'ziga xos ta'sirchan kuchga ega. M.Abrorov, S.Bulatov, O.Bo'riyev, I.Jabborov, T.Javliyev, M.Inomova, N.Ortiqov, M.Quronov kabi bir qator pedagog olimlarning ishlarida xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy urf-odat, marosim va an'analarning mohiyati, ularda ilgari surilgan g'oyalar, milliy madaniyat asoslari hamda ularning shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni va roli ochib berilgan.

Tarbiya jarayoning uziliksiz yaxlit jarayon ekanligi va o'ziga xosligidan kelib chiqib, tadqiqot doirasida quyidagi pedagogik psixologik shart-sharoitlarning ta'minlanishi tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish sifatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi:

1. Axborotli-mazmunli sharoit. Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug', qabila, elat, halq, millat), ijtimoiy sub'ektlar va boshqalar o'ziga hos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo'lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladiki, u o'sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi.

2. Texnologik sharoit. Tadqiqot maqsadi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan foydalanishning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish uchun texnologik sharoit asos qilib olindi. Bunda tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan foydalanish jarayonida:

- muammoli o'qitish;
- teatr pedagogikasi elementlaridan foydalanish;
- buktreylorlik texnologiyalaridan foydalanish,
- badiiy pedagogikadan foydalanish;

---

<sup>2</sup> Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017; Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017; Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

- pedagogik muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish, “Keys-stadi”;
  - dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash metodlariga alohida e’tibor qaratildi.
3. Refleksiv sharoit. Yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning natijaviy-mahsuli sifatida refleksiv (refleksiya-ortga nazar, tahlil, o’zgarishlar, shaxsning o’z faoliyatini baholay olish darajasi) sharoit muhitining yaratilishiga alohida e’tibor berildi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan samarali foydalanishga yo’naltirilgan refleksiv sharoit mazmuni quyidagicha belgilandi:
- faol bilish motivatsiyasini rivojlantirish;
  - aksiyologik munosabatni shakllantirish;
  - aksiologik ongning shakllantirish;
  - qadriyatli yonalganlikni shakllantirish;
  - milliy o’ziga xoslikni anglashni shakllantirish.

Olib borilgan tahlil natijalaridan ma’lum bo’ladiki, “Kitobxonlik” ko’rik tanlovlarini o’tkazish, “O’n ikki oy, o’n ikki alloma, o’n ikki asar” tadbirlarini tashkil etish, havaskorlar teatrini tashkil etish, auditoriyadan tashqari ishlar, jamoaviy tadbirlar, ijodiy kastinglar va boshqa turdagi tashkiliy tadbirlar tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan samarali foydalanishda muhim vositalardan sanaladi.

**NATIJALAR.** Ana shu maqsadda tajriba ob’ektida tadqiqot doirasida jami 52 nafar o’quvchilar o’rtasida tarbiyaviy qadriyatlar va ularning manbalaridan xabardorlik holatini aniqlash maqsadida so’rovnoma o’tkazildi.

So’rovnoma natijasiga ko’ra Tabiyaviy qadriyatlar manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Respondentlarning qiziqishlari, talablari, ta’lim muassasasining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o’tkaziladigan turli tadbirlar, ularning maqsadi, mazmuni, vazifalari aniq belgilandi.

Bosqichlar	Motivatsion	Faoliyat talablarini o’zlashtirish	O’z-o’zini anglash
Mazmuni	Qadriyatli ongning shakllanishi; qadriyatli yonalganlik, bilish faoliyatiga intilish motivatsiyasi	Qadriyatlarining o’zlashtirilishi, qadriyatli munosabatning shakllanishi	Ijtimoiy hayotda o’z o’rnini topish, o’zini-o’zi rivojlantirish muhiti, aksiologik yondoshuvni qaror topishi
Shakl, metod, vositalari	“Kitobxonlik” ko’rik tanlovlarini o’tkazish, “O’n ikki oy, o’n ikki alloma, o’n ikki asar” tadbirlarini tashkil etish, havaskorlar teatrini tashkil etish, sovrinli viktorinalar, zakovat intellectual o’yinlari, ijodiy kastinglar va boshqa turdagi tashkiliy tadbirlar	Axborotli ma’ruzalar, munozaralar, seminarlar, Keys-stadi, rolli- o’yinlar, vebinar, forumlar va boshq.	“SWOT va TOWS-tahlil”, esselar, treninglar

## 1-jadval:Tabiiyiy qadriyatlar manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish texnologiyasi

Tajriba guruhi respondentlari uchun allomalar asarlaridagi tarbiyaviy qadriyatlarga oid qarashlar asosida topshiriqlar ishlab chiqildi. Ushbu topshiriqlarni “Ajdodlarimiz merosi-bebaho hazinamiz” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etib, tadbirda respondentlar tomonidan bajarildi.

### 1-topshiriq. Quyida berilgan ma'naviy-axloqiy mavzudagi hikmatlarga doir:

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizning bayoniga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

1. Bir kalima shirin so'z qilichni qinga tiqar (Amir Temur).
2. Qanoat chashmadurkim, suvi olmoq bilan qurimas (Alisher Navoiy).
3. Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig' (Zahiriddin Muhammad Bobur).
4. Bilim yorug'likdir, nodonlik qorong'ulikdir (Ismatulla Raxmatullaev).
5. Ilmsiz aql- yengsiz kiyim (Saidrasul Aziziy).

**2-topshiriq.** Quyida ikki qismli kundalik taqdim etilgan bo'lib, uning birinchi qismida allomalarning asarlaridagi tarbiyaga oid fikrlari misollar berilgan, ikkinchi qismida esa, har bir fikrning mazmuniga doir o'z munosabatingizni yozing.

1	«Hushmand (aqlli) kishilar o`zlarining har bir ishlariga aniq vaqtni tayin etibdurlar. Ular kecha va kunduzning yigirma to`rt soatini o`z ishlariga taqsim qilibdurlar. Bir ishni yana bir ishdan farq etib, unga vaqt, had (chegara) va andoza (o`lchov) paydo qilibdurlar, toki ishlar bir- biriga aralashmag`ay».	
2	Ko'rklik to'ning o'zingga, Tortiq oshing o'zgaga. Qo'noqqa ko'rgaz izzat, Yoysin sha'ning uzoqqa.	
3	Qo'ni-qo'shni qarindosh Ko'rsin sendan yaxshilik Ne-ne sovg'a qilishsa Yaxshirog'in qil tortiq.	
4	Oqil ersang, eranlarga xizmat qilg'il, Amru maruf qilg'onlarni izzat qilg'il	

Respondentlarda qadriyatli yo'nalganlikni shakllantirishda “Qadriyatlar” o'yini, “Men hech qachon ..... maganman” o'yinidan foydalanildi. O'yinda o'quvchilar kata qiziqish bildirib, faol ishtirok etdilar.

### **“Qadriyatlar” o'yini.**

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog'ozlarga ajdodlar tajribasida o'z ifodasini topgan qadriyatli tasavvurlarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra yozib chiqishlari so'raldi. Keyin varaqlar shunday aralashtirilishi, ya'ni eng qadrlı narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerakligi aytili. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif etdi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'radi. Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Sh'undan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtda qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg'uni his qilganligini eslash taklif etildi. Keyin boshlovchi mo'jiza ro'y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qiladi va talabalar g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oldilar. So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarni yo'qotilgan vaqtdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatli tasavvurlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Guruh a'zolaridan ba'zilar qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirganliklarini ham ma'lum qilishadi. Mashg'ulot so'nggida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalami bayon etdi.

### **“Men hech qachon ..... maganman” o'yini**

Mazkur o'yin jarayonida o'quvchilarga mavjud qadriyatlar tizimidan foydalanib, ularing shaxsiy ahamiyatini o'zlarida namoyon eta olishlari so'raladi. Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachon .... maganman» degan jumladan iborat gap aytishlari lozimligi belgilab qo'yiladi (masalan, “Men hech qachon yolg'on gapirmaganmam”, “Men hech qachon o'zimdan kattalarga tik qarab gapirmaganman», «Men hech qachon haqoratli so'zlarni ishlatmaganman” va h.k.). Qolgan talabalar esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto'g'ri bo'lsa barmoqlarini bukib boradilar. Ya'ni, masalan, biror o'quvchi haqoratli so'zlarni ishlatsa, bitta barmog'ini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni kattalarga tik qarab gapirsa) yana bitta barmog'ini bukadi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechtasi bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutadi. O'qituvchi o'quvchilarni aytilayotgan fikrlar reallikka mos bo'lishi va barmoqlarni adolatli bukish lozimligi haqida ogohlantirib boradi. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettiriladi.

### **MUHOKAMA**

O'smirlik davrida bola hayotiy makonining kengayishi faqat geografik ma'noda emas (sayohat, turizm va h.konsepsiyalarga intilish), shuningdek, ijtimoiy muhitning (o'smir kirayotgan guruhning soni ko'pligi, unda adabiyot, sa'nat, siyosat, iqtisod va h.konsepsiyaga qiziqish kuchayishi) ham yuz beradi. Lekin hayotiy makonning jiddiy o'zgarishi zamon o'lchovida yuz beradi. Endi bola kelajakni tasvirlashga intila boshlaydi.

Yosh ulg'ayishi bilan hayotiy istiqbol masalalari bola ma'naviy hayotida ko'proq o'rin egallay boshlaydi va bu hol shaxs rivojlanishidagi eng dolzarb masalaga aylanadi. Shuning

uchun ham o'smirlilik davrida kelajakka munosabatdagi xira va noaniq tasavvurlar endi aniq rejalar va harakatlar bilan almashinadi. Kelajakdagi faoliyatni o'ylar ekan, o'smir o'zi tuzgan rejadan kelib chiqadi.

Katta yoshlilarning kelajakka munosabati ham xuddi shunday shaklda yuz beradi. Uning kitoblardan olgan bilimlari ko'pincha mavhum va ziddiyatlarga to'la. Masalan, badiiy asarlarda hayotda amalga oshirish mumkin bo'lmagan yumushlarni xam bajaragan qahramonlar madh etiladi. Ikkinchi tomondan esa hayotdan uzilib qolmaslik targ'ib qilinadi.

Kattalardan ibrat olish ham aksari xollarda qiyin bo'ladi. Chunki ular og'zida bir gapni aytishsa, ko'pincha amalda bunga zid ishlarni bajarishadi. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarning miqyosiga, yo'nalishiga va sur'atlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida o'z in'ikosini topmoqda.

O'z navbatida mamlakatimizdagi islohotlar ko'lami va sur'atlari ma'naviyatimizning ham tez sur'atlar bilan rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda. Bunday vazifani bajarish uchun ma'naviyat yuksalishiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solish zarurati sezilmoqda. Ayni paytda ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa o'smir o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish ko'lami va sur'atlariga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti.

Shaxsni ma'naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga oshirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o'smirlilik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviyatning negizi bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi.

## **XULOSA**

Tajriba natijalari va respondent-o'quvchilarning fikr-mulohazalari pedagogik-psixologik shart-sharoitlar integratsiyasining ta'minlanishi tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan foydalanish jarayoni ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan foydalanishga yo'natirilgan texnologiyalarning pedagogik jarayondagi imkoniyatlarini amaliy yoritish tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlashga yordam berishi aniqlandi. Ishning navbatdagi bo'limlarida mazkur masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Nazarova M. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyati. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022

3. Quronov M, Sh.Turayev va boshq. Milliy tarbiya va o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish. O'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti. 2017 y. 18 b.
4. Asqarova N. Boymurodova X. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik - psixologik qarashlari. // Volume 3 | TMA Conference | 2022
5. Ruziyeva R., N. Bobonazarova Ma'naviyat asosiari. T., "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi", 2019.